

## Mehnat tarbiyasi

Farangiz Erkinova  
Muqaddas Azimova

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

**Annotatsiya:** Ta'lim-tarbiya tarixiga nazar tashlar ekanmiz, dastlabki xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, buyuk mutafakkirlar ijodigacha yoshlarni mehnatsevar bo'lib yetishishi, kasb-hunar o'rganish, mehnat ahlini hurmat qilish hamda mehnat insonni ulug'lash masalalariga alohida e'tibor berilganligiga guvoh bo'lamiz.

**Kalit so'zlar:** «Qobusnoma», «Fozil odamlar shahri», «Qutadg'u bilig» o'quvchi, mehnat faoliyati, oila

## Labor education

Farangiz Erkinova  
Holy Azimova

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after  
Alisher Navoi

**Abstract:** Looking at the history of education, from the first examples of folklore to the works of great thinkers, we pay special attention to the issues of educating young people to be hardworking, learning a profession, respecting working people, and glorifying the human being. We will witness that attention has been paid.

**Keywords:** "Nightmare", "City of Virtuous People", "Kutadgu Bilig", student, labor activity, family

Ma'lumki, mehnat tarbiyasi shaxsni har tomonlama rivojlantirishning ajralmas qismidir. Shuningdek bolaning har tomonlama shakllantirish vositasi, uning shaxs sifatida ulg'ayish omili hamdir. Buyuk ajdodlarimiz mehnat tarbiyasi to'g'risida to'xtalib, qimmatli fikrlarini bildirib o'tishgan. Masalan, Abdurahmon Jomiy: «Oltin topmagnu o'rgangin hunar, hunarning oldida xasdir oltin-zar», - degan fikr bildirsalar, ulug' mutafakkir Alisher Navoiy: «Umrni zoye etma, mehnat qil, mehnatni saodatning kaliti bil», - deydilar. Fransuz adibi Anatol Franc: «Eng yaxshi axloqiy va estetik dori - mehnat», - degan fikrni ilgari suradi.

Bundan tashqari «Avesto», Kaykovusning «Qobusnoma», Abu Nasr Forobiyning «Fozil odamlar shahri», Abu Rayhon Beruniyning «Geodeziya», «Minerologiya»,

Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'at ul-turk», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Alisher Navoiyning bir qator asarlari va shu kabi ma'rifiy meros namunalari mehnatsevarlik, kasb-hunarning ahamiyati haqida muhim fikrlar bayon etilgan.

Hozirgi davrda texnika va texnologiyalar rivojlanishini yuksak bosqichga ko'tarish uchun ishlab chiqarishni keng ko'lamda kompyuterlashtirish, iste'mol mahsulotlarini jahon standartlari darajasida ishlab chiqishni yo'lga qo'yish talab etilmoqda.

Bularning barchasi yuksak intellektual va jismoniy kamolotga ega bo'lish, ishlab chiqarish jarayonlarining ilmiy-texnikaviy va iqtisodiy asoslaridan to'la qonli xabardor bo'lish, mehnatga ongli, ijodiy munosabatda bo'ladigan yoshlarni tarbiyalashni taqozo etadi.

Oilada iqtisodiy tarbiya zamirida ham mehnatsevarlikni tarbiyalash yotadi. Bolalar o'z mehnati natijalarini ko'rgandagina o'z imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanayotganini anglab yetadi, mustaqil faoliyat yuritishni o'rganadi, ularda tadbirkorlik va ishbilarmonlik xislatlari rivojlanadi.

Oilada yo'lga qo'yiladigan bolalar mehnati hovli va xonalarni tartibli saqlash, kiyim-kechaklarni asrab-avaylash, uy jihozlarni ta'mirlash, ro'zg'or yumushlariga yordam berish kabilar ko'rinishlarida namoyon bo'ladi. Ota-onalar bolalarni mehnat faoliyatini kuzatib borib, ularga zarur o'rinda maslahat berishlari kerak.

Ayniqsa, o'quvchi-yoshlarni oilada ham, ta'lim muassasalarida ham tejamkorlikka rioya qilishga o'rgatish katta ahamiyatga ega. O'quvchilar mehnat faoliyatining qaysi turiga jalb etilmasin, unda aqliy va jismoniy mehnatning uyg'unlashuviga erishish uchun unga nisbatan ijodiy yondashish uchun keng sharoit yaratilishi kerak. Mehnat faoliyatini tashkil etish jarayonida unig xar bir bosqichida o'quvchiga yo'l-yo'riq ko'rsatish, maslahat berish to'g'ri emas. Aksincha, topshiriqni berish chog'ida uni qanday bajarilishini tushuntirish, lozim bo'lsa bajarib ko'rsatish, mehnat jarayonida esa o'quvchining mustaqil fikirlash mustaqil qaror qabul qilish uchun imkon yaratib berish kerak. O'quvchi mehnatni orttirilgan tartib asosida, shuningdek, tadqiqotchilik vazifalarini hal etish asosida bajarilgan ijodiy xususiyat kasb etadi. Aynan shu holatda o'quvchida qiziqish uyg'otadi, unda mehnatga nisbatan muhabbat ijodiy munosabatni shakillantiradi.

Mazkur maqsadga erishish yo'lida quyidagi vazifalarni ijobiy hal etish maqsadga muvofiq:

yosh avlodda mehnat qilish istagini qaror toptirish va ularni zamonaviy ishlab chiqarishning turli sohalarida faoliyat yuritishga tayyorlash;

o'quvchilarda umumjamiyat manfaati yo'lida mehnat qilish ehtiyojini hosil qilish; ularning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish;

o'quvchilarning mavjud bilimlarini uzluksiz ravishda takomillashtirib borishlari uchun zarur shart-sharoit yaratish;

ularida mehnat ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish; o'quvchilar faoliyatida yuqori madaniyat, maqsadga intilish, tashkilotchilik, mehnat intizomi, tadbirkorlik, tejamkorlik, ishni sifatii bajarish, moddiy boyliklarga ehtiyotkorona mimosabatda bo'lish, hayotiy faoliyat yo'nalishini belgilash malakalarini shakllantirish;

o'quvchilarda davlat iqtisodiy siyosati mazmuniga tayangan holda ular yashab turgan hududlar ishlab chiqarish xususiyatlariga muvofiq kasblami egallashga bo'lgan qiziqishni oshirish;

o'quvchilarni kasbga yo'llash, ularni mehnat faoliyatining barcha turlari, shuningdek, ular yashayotgan hududda ehtiyoj mavjud bo'lgan mutaxassisliklar bilan tanishtirish.

Yuqoridagi talablar bajarilsa, o'quvchilarda mehnat tarbiyasini rivojlantirish ehtimoli oshadi. Albatta mehnat tarbiyasini yanayam shakllantirish va rivojlantirib borish zarur.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Хайдаров, С. А. (2023). ТАРИХ ДАРСЛАРИДА САНЪАТ АСАРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ УСУЛЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(1/2), 92-96.

2. Аслонов И. (2022) «Бобурнома» бадиий – психологик тасвир муаммоси объекти сифатида. *О'zМУ xabarlar*. Toshkent – 2022. №1/5.

3. Aslonov Ilhom Nizomovich. (2022) The Problem of Artistic - Psychological Image in Boburnoma. *Eurasian Scientific Herald*. Volume 7| April, 2022. ISSN: 2795-7365.

4. Aslonov Ilhom Nizomovich. (2022) Appearance of Zahiriddin Muhammad Bobur in "Boburnoma" *Central Asian journal of theoretical and applied sciences* Volume: 03 Issue: 06 | Jun 2022 ISSN: 2660-5317.

5. Sattorov V.N (2023). Umumiy pedagogika fani taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari. *ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES*, 3, 710-719. (2023)

6. Sattorov V.N (2023). Umumiy pedagogika fanini o'qitishda inovatsialar. *ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES*, 3, 734-745 (2023).

7. Sattorov V.N (2022). Methods of shaping the culture of the teacher. *Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning*. vol 3 no.02. 36-41 (2022). ISSN (online): 2776-0995

8. Sattorov V.N (2023). Indicators of Pedagogical Competence and its Effectiveness. *International Journal of Inclusive and Sustainable Education*. vol 2 no.02. 86-88. (2023). ISSN(e): 2833-5414

9. Arapbaeva Damegul Kurbanovna, Amirova Bibisara Aubakirovna. Personal Psychological Adaptation and its Characteristics. INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION. VOL. 2. NO 2. 2023. -P. 68-70.

10. Jobborova Gulnoza Kadamovna. (2022). Formation of Ecological Culture of Primary School Students. Eurasian Scientific Herald, 7, 240–242. Retrieved from

11. Jobborova Gulnoza Kadamovna. PEDAGOGIK ODOB-AXLOQ VA TALABA XULQ – MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(1/2), Jan., 2023. 97-105.